



# SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT UNIVERSITETI  
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

**Muhtaram ustoz va murabbiylar!**

Avvalo, sizlarni, ta'lrim-tarbiya sohasining barcha jonkuyar xodimlari va faxriyalarini umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan muborakbos etaman.

Bugun biz mamlakatimizda millati, tili, dinidan qat'i nazar, har bir inson o'z qobiliyati va iste'dodini, bilim va tajribasini ro'yobga chiqara oladigan ijtimoiy davlat barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda barcha kuch va imkoniyatlarimizni yoshlarmizning intellektual va jismoniy kamoloti, ularning sifatli ta'lim olib, hayotda munosib o'rinn egallashlari uchun safarbar etmoqdamiz.

Yaqinda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ta'lim sohasidagi islohotlarimiz ushbu nufuzli tashkilotning "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga uyg'un va hamohang ekani e'tirof etilgani barchamizni albatta xursand qiladi.

Bu yil yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ilk bor o'qituvchi maqomi alohida belgilanib, ta'lim tizimini rivojlantirish davlatning bosh vazifalari qatoriga kiritilgani bejiz emas. Chunki, jamiyat hayotida o'qituvchining o'rni va ta'siri oshsa – mактабнинг обро'и ошади, ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohasining qadri ko'tariladi. Muallimning obro'-e'tibori esa bu millatning, butun xalqning obro'-e'tiboridir.

So'nggi yillarda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli mamlakatimizda ko'plab yangi bog'chalar, mактаб va oliygochlар barpo etilmoqda. Ta'lrim-tarbiya va ilm-fan muassasalarining moddiy-teknik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlamoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodni yaratilmoqda.

Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini munosib qadralash va rag'batlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, olyi ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygochlар sonini 77 tadan 212 taga yetkazishga erishganimiz, hech shubhasiz, eng muhim yutug'imizdir.

Ta'lrim-tarbiya sohasida qabul qilgan dasturlarimiz asosida keyingi vaqtida 261 ta yangi o'rta ta'lim muassasasini qurish, 2,5 mingta maktabni kengaytirish hisobidan qo'shimcha 700 mingta o'quvchi o'rni yaratilganini ta'kidlash lozim.

Bu yil xorijdan taklif etilgan 500 nafar chet tili mutaxassis mактабларимизда ish boshladi. Kelgusi yillarda ularning sonini 3



## O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIKA

barobar oshiramiz, 10-11-sinflarda bir qator fanlarni o'quvchilarning tanlovi asosida chuqurlashtirib o'qitishni yo'lga qo'yamiz.

Ta'lim sohasi xodimlarining o'rtacha ish haqi 2 barobar ko'paytiriladi. Ming nafar tarbiyachi va o'qituvchilar xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuboriladi. O'qituvchilarni ishga qabul qilish, ularning malakasini oshirish va toifa berish tizimi ham takomillashtiriladi. Biz farzandlarimizni milliy g'urur, Vatanga muhabbat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga bundan buyon ham ustuvor ahamiyat qaratamiz.

**Qadrli do'star!**

Bugungi kunda mamlakatimizda mактаб ta'lими qollab-quvvatlash va rivojlantirish umummilliy harakatga aylanib bormoqda. Xususan, navoiylik Abdukarim Saksonov, samarqandlik Quyosh Haqberdiyev, Ilhom Rustamov, buxorolik

Oybek Namozov, qashqadaryolik Nurbek Ergashev kabi o'nlab tadbirkorlarimiz o'z hududlarida yangi maktablar qurgani, ta'lim dargohlarini kapital rekonstruksiya qilib, zamонави асосда jihozlab bergani, ohangaronlik oqsoqol shoirimiz Barot ota Isroilov esa hovlisida kutubxona ochib, uni o'z hisobidan 10 mingta kitob bilan ta'minlab, bu ma'rifat maskanini qishloq o'quvchilariga sovg'a qilgani har qancha tahsinga sazovor. Saflari tobora ko'payib borayotgan mana

shunday insonlar siyosida biz jadid bobolarimizning munosib davomchilarini, ularning ushalayotgan orzu va intilishlarini, Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini ko'ramiz.

Imkoniyatdan foydalaniib, bunday fidoyi, saxovatli yurdoshlarimizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

**Muhtaram yurtoshshlar!**

Taraqqiyotimiz dasturi bo'lmish "O'zbekiston – 2030" strategiyasida sizlar bilan birga ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha yangi maqsad va rejalarini belgilab oldik.

Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni zimmasiga olishga qodir yangi avlodni tarbiyalash barchamizdan katta kuch-g'ayrat, azmu shijoat bilan mehnat qilishni talab etadi.

Mana shunday sharafli vazifani ado etishda men siz, muhtaram ustoz va murabbiylarga har tomonlama yordam va ko'mak berishga tayyor ekanimni yana bir bor izhor etib, barchangizga sihat-salomatlik, baxtu saodat, olijanob faoliyatizingizda ulkan muvaffaqiyatlar, xonardonlaringizga fayzu baraka tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, muhtaram ustozlar!

**Shavkat Mirziyoyev,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# PROFESSOR-O'QITUVCHILARI UCHUN BAYRAM TADBIRI

3-oktabr kuni Samarqand viloyati musiqali drama teatrida Samarqand davlat tibbiyot universitetida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar uchun bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda SamDTU rahbariyati hamda barcha professor o'qituvchilar ishtirok etdi.

Universitet rektori, professor Jasur Rizayev so'zga chiqib, barcha fidoiy ustozlarni bayram bilan tabrikaldi hamda ilm yo'lida qilayotgan mehnatlarini yuksak baholab, ularga kuch-quvvat va sog'lik omonlik tiladi. Shuningdek, samarali mehnat qilib kelgan barcha professor-o'qituvchilar hamda pedagog xodimlar faxriy yorliq, medal hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlандilar.

Bayram dasturi doirasida tomoshabinlarga yozuvchi va shoir, Farmon Toshev qalamiga mansub «Yalangto'sh Bahodir» asari asosida sahnalaشتirilgan spektakl namoyish etildi. Bu yig'ilganlarga yanada ko'tarinki kayfiyat ulashdi.



## SAMDTU XODIMLARI “SOG'LIQNI SAQLASH A'LOCHISI” KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDILAR

O'zbekiston Respublikasi Sog'lirqni saqlash vazirining buyrug'i bilan "1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan sohada faoliyat olib borib, yosh avlodning sifatli ta'limg olishida o'zining fidokorona mehnati bilan namuna bo'layotgan, tizim rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh soha vakillari "O'zbekiston Respublikasi Sog'lirqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining ham quyidagi xodimlari:

3-sont Akusherlik va ginekologiya kafedrasi mudiri **Shavazi Nargiz Nuraliyevna**,

Pediatriya faculteti Ichki kasallikkil kafedrasi mudiri **Babamuradova Zarrina Baxtiyarovnalar**.

"O'zbekiston Respublikasi Sog'lirqni saqlash a'lochisi" ko'krak nishoniga sazovor bo'ldilar.

Xodimlarimizni erishgan yutuqlari bilan tabriklaymiz ularni va kelgusi faoliyatlariga omadlar tilab qolamiz!



## SAMDTU XODIMLARI “OLIY TA'LIM A'LOCHISI” KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDILAR

Oliy ta'limg, fan va innovatsiyalar vazirining buyrug'i bilan «1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni» munosabati bilan sohada faoliyat olib borib, yosh avlodning sifatli ta'limg olishida o'zining fidokorona mehnati bilan namuna bo'layotgan, tizim rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh soha vakillari "Oliy ta'lim a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



SAMARQAND DABLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI  
XODIMLARI “OLIY TA'LIM A'LOCHISI”  
KO'KRAK NISHONI BILAN TAQDIRLANDILAR



AZIZA MAXMUDOVA

1-sont Xirurgik kasallikkil kafedrasi mudiri **Kurbaniyazov Zafarjon Babajanovich**,

Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi mudiri **Maxmudova Aziza Nugmanovna**,

DKTF terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrasi mudiri **Agababyan Irina Rubenovnalar** «Oliy ta'lim a'lochisi» ko'krak nishoniga sazovor bo'ldilar.


Xodimlarimizni erishgan yutuqlari bilan tabriklaymiz va kelgusi faoliyatlariga omadlar tilab qolamiz!

Samarqand davlat tibbiyot universitetining ham quyidagi xodimlari:  
Universitet kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi **Allayarov Yaxshinor Norbobayevich**,  
Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich**,



SHAVAZI  
NARGIZ NURALIYEVNA

BABAMURADOVA  
ZARRINA BAXTIYAROVNA



## SAMARQAND – YER YUZINING SAYQALI!

18-oktyabr – Qadimiy va hamisha navqiron Samarcand shahri kuni sifatida nishonlanadi.

Sana munosabati bilan bugun erta tongdan Samarcand shahri bo'ylab bayram shodiyonalari boshlandi. Jumladan Samarcand davlat tibbiyot universiteti ham katta bayram saylida faol ishtirok etib, faxrli 2-o'ringa sazovor va Samarcand shahar xokimligi tomonidan 15 mln. so'mlik vaucher bilan taqdirlandi. Bayramda universitet professor o'qituvchilari va talabalari ishtirok etdilar. Shuningdek, ko'tarinki bayram dasturiga SamDTU rektori Jasur Rizayev ham tashrif buyurdi hamda barchani ona Samarcandimiz bayrami bilan tabrikldi.

Yuqori kayfiyatda o'tgan bayramda SamDTU jamoasi tomonidan tibbiyotga oid ko'rgazmalar, turli qiziqarli san'at namunalari hamda Xalqaro ta'lif fakultetining xorijilik talabalari ishtirokidagi milliy raqs chiqishlari namoyish etildi. Shuningdek, mehmonlar uchun bayram dasturxoni yozilib, kuy va qo'shiqlar yangradi.

### "STOMATOLOGIYA FANI VA AMALIYOTINING ZAMONAVIY YUTUQLARI" XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Joriy yilning 16-oktabr kuni universitetda "Stomatologiya fani va amaliyotining zamonaviy yutuqlari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo'lib o'tdi. Xalqaro anjumanda SamDTU hamda yurtimizdagi malakali stomatologlar bilan bir qatorda xorijiy davlatlar olyi ta'lif muassasalari professor-o'qituvchilari va stomatologlari ham ishtirok etdi.

Konferensiya ochilishida so'zga chiqqanlar tashkil etilgan konferensianing zamonaviy stomatologiya rivojida katta o'rin egallashi va tibbiyot olyi ta'lif muassasalari o'tasidagi o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashini ta'kidlab, barcha ishtirokchilarga omad tiladilar.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda stomatologiya sohasidagi dolzarb muammolar va yangiliklar yuzasidan turli ma'ruzalar tinglandi. Jumladan, Rossiya

Federatsiyasi Smolensk Davlat tibbiyot universiteti professori Ginali Nikolay Vasiliyevich «O'tkir tish shikastlanishi. Etiologiya, klinika, davolash, oldini olish» mavzusida tibbiyot fanlari doktori, professor, Shashmurina Viktoriya Rudolfovna «Bemorlarni reabilitatsiya qilishning zamonaviy algoritmlari

surunkali periodontit» mavzusida hamda tibbiyot fanlari doktori, professor, Nikolayev Aleksandr Ivanovich «Yorug'lik bilan davolash mumkin bo'lgan kompozitsiyalar bilan estetik restavratsiya usullarini takomillashtirish» kabi ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.



## NEVROLOGIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISHGA

### BAG'ISHLANGAN XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2023-yil 6-7 oktabr kunlari universitetda "SamDTU Nevrologiya kafedrasining 90 yilligi — muvaffaqiyatlar, yutuqlar, istiqbollar" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Ikki kun davomida o'tkazilgan anjumanda Turkiya, Isroi, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston va Rossiya davlatlaridan kelgan professor -o'qituvchilar va respublikamizning tibbiyot olyi o'quv yurtlari hamda tibbiyot markazlarining nevrologiya sohasidagi taniqli olimlari, amaliyotchi-mutaxassislar ishtirok etishdi.

Xalqaro konferensianing tantanali ochilish marosimida so'zga chiqqan rektor Jasur Rizayev, Rossiya Federatsiyasi I.I. Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbii davlat tibbiyot universiteti rektori, professor Sergey Sayganov, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining bosh nevrologi, professor, Yoqutxon Nabiyevna Majidova va boshqalar zamonaviy nevrologiya va bolalar nevrologiyasi muhim masalalarini o'rganish sog'liqni saqlash sohasi uchun muhimligini, shuningdek, universitetlar o'tasidagi xalqaro

hamkorlik keng yo'lda qo'yilishi uchun lozimligini ta'kidladilar.

Konferensianing asosiy maqsadi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi mohiyatidan kelib chiqqan holda ilm-fanni rivojlantirish hamda xorijiy davlatlardagi tibbiyot yangiliklarini joriy qilish, asab kasalliklari bilan bog'liq muammolarga yechim topish va bemorlarni davolashga zamonaviy yondashish, chet ellik olimlar bilan bilim va tajriba almashgan holda nevrologiya fanini xalqaro miyosda rivojlantirishdir. Shu bois anjuman doirasidagi yalpi majlisda Nevrologiya va bolalar nevrologiyasidagi yutuqlar va rivojlanish istiqbollar muhokama qilindi. Samarcand davlat tibbiyot universiteti Mevrologiya va bolalar nevrologiyasi kafedrasining to'plagan tajribasi borasidagi ma'ruzalar tinglandi. Xorijlik



mutaxassislar va yosh tadqiqotchilarning chiqishlari ishtirokchilarning alohida diqqat-e'tiborini tortdi.

Anjumanning keyingi bosqichi ikkita sho'bada davom e ttirildi hamda "Miyaning limfa tizimi: fiziologiya va klinikadagi roli", "Lakunar insultning patofiziologiyasi-zamonaviy talqin", "Xavotir buzilishi va ularning klinik amaliyotidagi ahamiyati", "Dyushen miyopatiyasini tashxislash va davolashning zamonaviy imkoniyatlari", "Diabetik polinevropatiyada neyrotrofik omillarning roli", "Parkinson kasalligida reabilitasiyaga zamonaviy yondashuv" kabi mavzularda ma'ruzalar qilindi.

Shuningdek, keyingi yillarda Nevrologiya sohasida erishilgan texnologik hamda ilmiy yutuqlar, kelajakdagisi istiqbollar muhokama qilindi.



## SamDTU rektori Sileziya tibbiyot universiteti yangi o'quv yili ochilishida qatnashdi

Joriy yilning 9-oktabrida Sileziya tibbiyot universitetida yangi o'quv yilining 75-yubileyi ochilishi bo'lib o'tdi.

Marosimda, Polsha Respublikasi Prezidenti Anjey Duda ham ishtirok etdi. Shuningdek, ochilishida universitet senati a'zolari hamda professor-o'qituvchilar qatorida Samarcand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev ham faxriy professor sifatida ishtirok etdi. Yangi o'quv yilini ochilish marosimida so'zga chiqqan Jasur Rizayev barcha yig'ilganlarni yangi boshlangan o'quv yili bilan samimiyl tabriklab, do'stlik ramzi sifatida milliyigimiz aks etgan esdalik sovg'asini Sileziya tibbiyot universitetiga topshirdi.

Prezident talabalarni ushbu oliy o'quv yurtini tanlagani bilan tabriklab, "Tibbiyot barcha fanlar ichida eng oliyanobi", deb ta'kidladi.

SamDTU rektori, professor Jasur Rizayevning ochilish marosimidagi ishtiroki Polsha tibbiyot oliygohlari hamda SamDTU o'rtaсидаги hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyatga egadir.



## SamDTU Italiyaning Padua universiteti bilan hamkorlik o'rnatdi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Xalqaro ta'lim fakulteti dekani S.Mamaradjabov boshchiligidagi universitet delegatsiyasi Italiyaning eng qadimiy oliygohi hisoblangan Padua universitetiga tashrif buyurdi.



## Polsha oliy biznes maktabi bilan hamkorlik masalalari muhokama qilindi

Joriy yilning 6-oktabr kuni universitetga Polsha davlati Oliy biznes maktabi - LOUS universiteti delegatsiyasi tashrif buyurdi.

LOUS universiteti (Wyzsza Szkoła biznesu national Lous university) rektori Dariush Vojnyak hamda Xalqaro bo'lim boshlig'i Hanna Hrechyshkinialarni SamDTU rektori Jasur Rizayev kutib oldi. Tashrifdan maqsad Polsha Davlatining Oliy biznes maktabi va oliy ta'lim muassasasi o'rtaсида hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, nazariy va amaliy tibbiyot hamda ta'lim sohasida zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda birgalikdagi loyihalarini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

LOUS universiteti taklifiga binoan SamDTU bilan hamkorlikda bioinformatika, tibbiyot sohasida IT yo'nalishi bo'yicha hamda "Sogliqni saqlashda menedjment" ixtisosligi boyicha hamkorlikni davom ettirish, bakalavriyat va magistratura yo'nalishlari bo'yicha tajribali, yetuk va malakali kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishga kelishib olindi. Shuni aytish joizki oxirgi 3 yil davomida SamDTUda Wyzsza Szkoła biznesu National Lous university bilan hamkorlikda Sogliqni saqlashda menedjmenti ixtisosligi bo'yicha qo'shma tal'im dasturlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

## SamDTU Italiyaning Padua universiteti bilan hamkorlik o'rnatdi

Tashrifdan ko'zlangan maqsad, ikki ta'lim muassasasi o'rtaсида o'zaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishdan iborat bo'ldi. Delegatsiya Padua universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori, tibbiyot fakulteti yurak, qon tomirlari, transplantologiya

va sog'liqni saqlash kafedrasi mudiri, professor Federiko Rea, Tibbiyot ishlari bo'yicha prorektor, Sport tibbiyoti kafedrasi mudiri va kardiologiya professori Korrado, professor Kristina Basso, professor Zorzi, professor Sergey Bondarev bilan uchrashди.

Muzokaralar davomida talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtaсида akademik mobillikni yo'lga qo'yish, doktorantlar almashinuvni hamda Padua universitetida faoliyat yurituvchi "Galileo Galilei" va "Erasmus" dasturlarida ishtirok etish imkoniyatlari borasida bir qator kelishuvlarga erishildi va hamkorlik memorandumi imzolandi.

Ma'lumot o'rnda aytish joizki, Padua universitetining tarixi 1222-yilga borib taqaladi, oliygo nafaqat Italiya balki Yevropaning ham eng qadimiy oliygohlardan biri hisoblanadi. Universitet 2022-yilda o'zining 800 yillik yubileyini nishonlagan va Time High Education reytingining 1000 taligidan joy olgan.

# SHIFOKOR SO'ZI

ROSSIYANING YETAKCHI  
UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK  
YANADA KUCHAYTIRILADI


4-oktabr kuni universitetga

Rossiyaning I.I. Mechnikov nomidagi  
Shimoliy-G'arbiy davlat tibbiyot  
universiteti rektori, professor Sayganov  
Sergey Anatolyevich va O'quv ishlari  
bo'yicha prorektor Artyushkin Sergey  
Anatolyevich tashrif buyurdi.

Tashrif davomida 2024-2025 o'quv yilidan  
ikki oliy ta'lif muassasasi o'tasida 50  
dan ortiq tibbiyot yo'nalishlarida qo'shma  
ta'lif dasturi asosida klinik ordinatorlarni  
tayyorlashni yo'lga qo'yish hamda talabalar  
va professor-o'qituvchilar bilan akademik  
mobililik dasturini kuchaytirish va bu orqali  
tibbiy ta'lif darajasini jahoning yetakchi  
oliygochlarga tenglashtirish masalalari  
kelishib olindi.

Ma'lumot o'mida shuni aytish joizki I.I.  
Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy  
davlat tibbiyot universiteti yetakchi tibbiyot  
oliygochlardan hisoblanib u 1885 yilda ta'sis  
etilgan va ushbu ta'lif jarayonini tashkil  
etish va xorijiy davlatlar tibbiyot oliygochlari  
bilan hamkorlikda xalqaro loyihalarni  
amalga oshirish borasida dunyoning nufuzli  
reytinglaridan joy olib kelmoqda. Xususan  
universitet bugungi kungacha jahoning 70  
dan ortiq davlatlaridagi tibbiyot muassasalari  
bilan hamkorlikda ishlab kelmoqda.

I.I. Mechnikov nomidagi Shimoliy-G'arbiy  
davlat tibbiyot universiteti hamda Samarcand  
davlat tibbiyot universiteti o'tasida yo'lga  
qo'yilgan hamkorlik aloqalari ham oliygohimiz  
talabalar uchun jahon miqyosiga chiqishga  
zamin yaratadi.



## TIBBIYOT UNIVERSITETI

Hamkorlik



5  
MEDICAL  
UNIVERSIT



## SMOLENSK DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

17-oktyabr kuni Samarcand davlat tibbiyot universitetiga Rossiya Federatsiyasi  
Smolensk Davlat tibbiyot universiteti delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Smolensk Davlat tibbiyot universiteti professori Ginali Nikolay Vasilievich hamda  
professor Nikolayev Aleksandr Ivanovichlardan iborat mehmonlarni rektor Jasur  
Rizayev kutib oldi.

Tashrifdan maqsad SamDTU hamda Smolensk davlat tibbiyot universiteti  
o'tasida hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish hamda birgalikdagiloyihalarni  
amalga oshirishdan iborat edi. Uch rashuvda ikki ta'lif muassasasi hamkorligida  
klinik ordinatura mutaxassislarini tayyorlashni yo'lga qo'yish va sifatli tibbiy ta'lifni  
rivojlantirish borasida kelishuvga erishildi.

Uch rashuv so'ngida SamDTU rektori Jasur Rizayev mehmonlarga universitet  
ramzi tushirilgan esdalik sovg'alarini topshirdi.



## TURKIYANING ATATURK UNIVERSITETI BILAN HAMKORLIK YO'LGA QO'YILADI

Samarcand davlat tibbiyot universitetiga Turkiyaning Ataturk universiteti  
delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Ataturk universiteti rektori, professor Ömer COMAKLI, universitet prorektori,  
professor Medine GULLUCE, Xalqaro idora rahbari professor Taskin OZTAS hamda  
Yevroosiyo Ipak yo'lli tadqiqot markazi direktori professor Ali Caglar GULLUCElardan  
iborat mehmonlarni SamDTU rektori, professor Jasur Rizayev kutib oldi.

Tashrifdan maqsad ikki oliy ta'lif muassasasi o'tasida hamkorlik aloqalarini  
yo'lga qo'yish, amaliy tibbiyot hamda ta'lif sohasida zamonaviy texnologiya va  
usullardan foydalangan holda birgalikdagiloyihalarni amalga oshirishdan iborat  
bo'lib, uch rashuv davomida bir qator kelishuvlarga erishildi.

Jumladan kelgusida SamDTU va Ataturk universiteti o'tasida sport tibbiyoti  
hamda transplantologiya yo'nalishlarida kadrlar tayyorlashda, malaka oshirish va  
ilmiy izlanishlarni olib borish borasida hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda akademik  
mobilikkni amalga oshirish bo'yicha memorandum imzolandi. Shuningdek, kelgusida  
SamDTU qoshidagi 3 ta ilmiy-amaliy markaz va 1 ta ilmiy tadqiqot institutlarining  
Ataturk universiteti klinikalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yish ham ko'zda tutilgan.

Ma'lumot o'mida aytish joizki Ataturk universiteti Turkiyaning eng qadimgi  
oliygochlardan biri bo'lib, 1957-yilda tashkil topgan. Universitet jahon universitetlari  
reytingida kuchli 500 talikdan, Turkiya reytinglarida esa top 10 talikdan joy  
egallagan. Oliygohda 480 mingdan ortiq talaba mavjud bo'lib, ta'lif jarayonlari  
jahon tajribalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

# UNIVERSITET ARMi SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI DAVLAT ILMITY TIBBIY KUTUBXONASI MA'LUMOTLAR BAZASI BILAN BOG'LANDI

*Samarqand davlat tibbiyot universitetiga O'zbekiston Respublikasi sog'lioni saqlash vazirligi davlat ilmiy-tibbiyot kutubxonasi delegatsiyasi tashrif buyurdi.*

Tashrifdan ko'zlangan maqsad Samqand davlat tibbiyot universiteti kutubxonasi bazasida "Zamonaviy sharoitda tibbiyot kutubxonalarini ishini tashkil etish" o'quv seminarini o'tkazishdan iborat edi. Shuningdek, tashrif doirasida SamDTU o'quv zallari, kompyuter xonalari hamda axborot resurs markazida yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishildi.

Universitet axborot resurs markazi bo'limlarining dizayni, kitobxon foydalanuvchilarga yaratilgan qulayliklar va XVIII-XIX asrga tegishli

nodir qo'lyozmalar mehmonlarda iliq taassurot qoldirdi.

Endilikda SamDTU axborot resurs markazi O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi Davlat kutubxonasingen elektron ma'lumotlar bazasidan erkin foydalanish hamda <https://t.me/uzmedlibuz>, "GNMB SciNews", "<https://natmedlib.uz>" ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu esa universitetda ARM faoliyatini samarali tashkil etish va talabalarga yanada keng imkoniyatlar yaratilishiga asos bo'ladi.



## SAMDTU DA "OTA-ONALAR KONGRESI" BO'LIB O'TDI

*Universitetda ta'lim olayotgan yoshlarning sifatlil bilim olishlari va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda ota-onalarning ishtirokini yanada kuchaytirish hamda universitet faoliyati bilan keng jamoatchilikni yaqindan tanishtirish maqsadida 6-oktabr kuni "Ota-onalar kongresi" tashkil etildi.*



Tadborda Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor Tangirov Eldor Sayfullayevich, Tibbiy kimyo kafedrasи mudiri, tibbiyot fanlari doktori Xolmurodova Dilafruz Kuvatovna hamda bir qator faol talabalar ota-onalari bilan ishtirok etdilar.

Shuningdek, universitetda tahsil olayotgan va tashkil etilgan tadbirda o'zining faolligi, bilimi hamda liderlik salohiyati bilan namuna bo'lgan talabalarning ota-onalariga "Tashakkurnoma"lar berildi. Tadbir so'ngida iqtidorli talabalar tomonidan tayyorlangan she'r va kuy-ko'shiqlar uchrashuvga yanada ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.



## SAMDTU DA ZIYO FORUM ISHTIROKIDA INFO-SEMINAR BO'LIB O'TDI

*16-oktyabr kuni Smarqand davlat tibbiyot universitetida "ZIYO FORUM" ilm-fan va ta'limni rivojlantirish xalqaro fondi jamoasi tomonidan info-seminar tashkil etildi.*

Seminarga direktor o'rinnbosari Olimjon Xaitmuxamedov, "ZIYO FORUM" matbuot xizmati boshlig'i Sirojiddin Bozarov hamda "Avlod media" loyihasi rahbari Akobir Gafurovlar tashrif buyurdi.

Uchrashuvda talabalarga "ZIYO FORUM" faoliyati va loyihalari haqida ma'lumotlar berildi. Shuningdek fond tomonidan tashkil etilgan tanlovlardan talabalar yaratilgan keng imkoniyatlar bilan tanishtirildi. Tadbir davomida, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga bevosita "ZIYO FORUM" jamoasidan javob olish imkoniyatiga ega bo'dilar.





## 21-OKTABR - O`ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILGAN KUN

*Ona tilimiz milliy davlatchiligidan va qadriyatlardan o`zida aks ettirganligi bilan katta ahamiyatga ega.*

1989-yil 21-oktabrdan beri har yili o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kunni bayram sifatida nishonlab kelamiz. Bu yil ona tilimiz 34 yoshga to`ldi.

Bayram munosabati bilan Samarqandda ham qator tadbirlar bo`lib o`tdi. Jumladan Samarqand shahridagi "Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'i" da tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan shoir, mutafakkir, so'z mulkinining sultonasi, Hazrat Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi bo`lib o`tdi. Tadbirda

Samarqand shahrining bir qator mas'ul shaxslari, soha vakillari hamda oliy ta'lim muassasalarini vakillari va talabalar ishtirok etdi. Shuningdek, Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi ham bayram tadbirida ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar ona tilimiz ulug'ligi, uning o'tmishi va buguni, tilimizning jamiyat va davlat rivojidagi ahamiyati xususida gapirib, o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 34 yilligi bilan yig'ilganlarni tabrikladilar. Tadbir davomida tilimiz madh etilgan she'r va kuy-qo'shiqlar tinglandi hamda sahna ko'rinishi namoyish etildi.

### SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

#### 1-SON DAVOLASH ISHI FAKULTETI

Gematologiya kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rinn;  
Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasi, stajyor assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

kafedrasi, assistant lavozimiga - 2 o'rinn;

1-son Bolalar xirurgiyasi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Yuqumli kasalliklar kafedrasi, assistant lavozimiga - 2 o'rinn.

#### TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejmenti kafedrasi, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rinn.

#### STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Yuz-jag' xirurgiyasi kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

#### DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETI

Umumiy amaliyot oilaviy meditsinska kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Nevrologiya va neyrochirurgiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Terapiya, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Tibbiy radiologiya kafedrasi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn;

Ijtimoiy salomatlik va sog'liqni saqlash boshqaruvi kursi, assistant lavozimiga - 1 o'rinn.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovida fan doktori, fan nomzodi ilmiy

darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovida fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy

darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Katta o'qituvchi, assistant yoki stajyor assistant lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha olyi ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjalarning e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

## 1-SON TTJ DA "MILLIY TAOMLAR" TANLOVI OTKAZILDI

*Universitetda talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga ko'maklashish hamda ularni adabiyot, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida bir qator tizimli ishlar yo'liga qo'yilgan.*

Jumladan kuni kecha Samarqand davlat tibbiyot universiteti 1-son talabalar turar joyida "Pediatriya fakulteti" va "Travmatologiya va ortopediya" kafedrasi tashabbusi bilan "Milliy taomlar" va "Shaxmat" musobaqalari tashkil etildi. Musobaqalar davomida talaba qizlar tomonidan milliy palov hamda milliy salatlar tayyorlanib, taqdirm etildi. Yigitlar o'rtaida esa shaxmat musobaqalari o'tkazilib, eng kuchlilar aniqlandi.

G'olib va sovrendorlarga SamDU rektori Jasur Rizayev tomonidan diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.





# E'lonlar

# SHIFOKOR SO'ZI

SamDTU Informatika, informatsion texnologiyalar kafedrasida 2023-yil 1-noyabr kuni soat 11:10 da Tibbiyotda axborot texnologiyalari fanidan Pediatriya ishi fakultetining 111-115 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Tibbiyotda multimedia ilovalarini yaratishdagi dasturiyositalar. (Tibbiyotma'lumotlarini taqdim etish uchun taqdimatlar yaratish Ms Power Point, Prezi Adobe Flash Player dasturidan foydalanimish). Kompyuter grafikasi dasturlari bilan ishlash. Tibbiyotda vizualizatsiya. Grafik muharrirlar va uning imkoniyatlari".

**Ma'ruzachi:** Assistent R.Bahramov.

**Manzil:** Informatika, informatsion texnologiyalar kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Kafedra professor o'qituvchilar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** PhD, dotsent S.Karabayev.

SamDTU Odam anatomiyasi kafedrasida 2023-yil 3-noyabr kuni soat 11:10 da Anatomiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 206-210 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Bosh miya juft nervlarining vazifaviy anatomiyasi I, -XII juft bosh miya nervlari".

**Ma'ruzachi:** T.f.n., dotsent O.Ismoilov.

**Manzil:** Odam anatomiyasi kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** O'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** PhD, dotsent N.Xamrakulova.

SamDTU Nevrologiya kafedrasida 2023-yil 7-noyabr kuni soat 10:00 da Nevrologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 535-537 guruh talabalari, 1-son Davolash ishi fakultetining 521-525 guruh talabalari, Tibbiy pedagogika, oly hamshiralik ishi va xalq tabobati fakultetining 401-403 guruh talabalari uchun integrativ ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Наследственно-дегенеративные заболевания, медико-генетическая консультация. Работа скрининг центра Самаркандской области". ("Nerv sistemasining nasliy-degenerativ kasallikkari, Genetik maslahat, Samarqand viloyati perinatal markazining ishi faoliyati").

Ma'ruzachilar: T.f.d., professor A.Djurabekova, T.f.d., dotsent L.Muxamadiyeva, Genetik N.Goldina, Skrining markazi shifokor-neurolog D.Fayzullayeva.

**Manzil:** SamDTU ko'p tarmoqli klinikasining katta ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Magistrlar, klinik ordinotorlar, doktorantlar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., professor A.Djurabekova.

SamDTU Fatmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasida 2023-yil 8-noyabr kuni soat 9:35 da Tibbiyot va farmatsevtika tovarshunosligi fanidan Farmatsiya fakultetining 515-518 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Tibbiyot va farmatsevtika tovarlarining sifat nazorati".

Ma'ruzachi: PhD. N.S.Bozorova.

**Manzil:** Fatmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** PhD. N.Bozorova.

SamDTU 2-son Davolash ishi fakultetining 2-Ichki

kasallikklar va kardiologiya kafedrasida 2023-yil 12-noyabr kuni soat 11:00 da Ichki kasallikklar fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 601-605 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Yurak ritmining buzilishi, aritmiyalar etiopatogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi, tasnifi, diagnostik mezonlari, differential diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi".

**Ma'ruzachi:** PhD, assistant G.Abdiyeva.

**Manzil:** 2-Ichki kasallikklar va kardiologiya kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., professor E.Tashkenbayeva.

SamDTU 1-son Otorinolaringologiya kafedrasida 2023-yil 14-noyabr kuni soat 09:35 da Otorinolaringologiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 421-425 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Lor a'zolari yot jismli va jarohatlari".

**Ma'ruzachi:** T.f.d., professor N.Xushvakova.

**Manzil:** 1-son Otorinolaringologiya kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Klinik ordinotorlar va barcha tinglovlchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., professor N.Xushvakova.

SamDTU Ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasida 2023-yil 20-noyabr kuni soat 11:10 da Ftiziatriya fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 421-425 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Tuberkuloyzni aniqlash usullari va umumiy tamoyillari".

**Ma'ruzachi:** T.f.n., assistant X.Turdibekov.

**Manzil:** Ftiziatriya va pulmonologiya kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** PhD, dotsent A.Kim.

SamDTU 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida 2023-yil 21-noyabr kuni soat 11:00 da Pediatriya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 426-429 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Piyelonefrit, etiopatogenezi, kasallikkha olib keluvchi omillar, tasnifi. Piyelonefritning klinik ko'rinishi tashxislash mezonlari, davolash usullari va profilaktikasi".

**Ma'ruzachi:** T.f.d., dotsent L.Muxamadiyeva.

**Manzil:** 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Doktorantlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., dotsent L.Muxamadiyeva.

SamDTU Odam anatomiyasi kafedrasida 2023-yil 24-noyabr kuni soat 8:00 da Anatomiya fanidan Pediatriya ishi fakultetining 101-105 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Mushaklar to'g'risida ma'lumot, uning taraqqiyoti va tasnifi. Uning vazifaviy

anatomiyasi. Mushak tizimi anatomiyasi".

Ma'ruzachi: T.f.n., dotsent E.Xusanov.

**Manzil:** Odam anatomiyasi kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** O'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** PhD, dotsent N.Xamrakulova.

SamDTU 2-Ichki kasallikklar va kardiologiya kafedrasida 2023-yil 25-noyabr kuni soat 11:00 da Ichki kasallikklar fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 601-605 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "O'pka zotiljami etiopatogenezi, klassifikatsiyasi, klinikasi, tasnifi, diagnostik mezonlari, differential diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi".

**Ma'ruzachi:** PhD, assistant A.Muxiddinov.

**Manzil:** 2-Ichki kasallikklar va kardiologiya kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., professor E.Tashkenbayeva.

SamDTU 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasida 2023-yil 24-noyabr kuni soat 11:00 da Akusherlik fanidan 1-son Davolash ishi fakultetining 606-610 guruh talabalari, magistr va klinik ordinotorlar uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrda qon ketishi. UASh taktikasi".

**Ma'ruzachi:** PhD., G.N.Indiaminova.

**Manzil:** 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasи ma'ruzalar zali.

**Taklif qilinganlar:** Magistr va klinik ordinotorlar, o'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** PhD, dotsent N.N.Shavazi.

SamDTU Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasining 2023-yil 28-noyabr kuni soat 9:35 da Gigiyena. Tibbiy ekologiya fanidan 2-son Davolash ishi fakultetining 301-305 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** "Havo muhiti va quyosh radiatsiyasining gigiyenik tavsifi va ekologik ahamiyati".

**Ma'ruzachi:** Katta o'qituvchi R.Sh.Baratova.

**Manzil:** Umumiy gigiyena va ekologiya kafedrasining ma'ruza zali.

**Taklif qilinganlar:** O'quv bo'limi, kafedra o'qituvchilar va barcha qiziquvchilar.

**Kafedra mudiri:** T.f.d., dotsent B.E.To'xtarov.

## TA'ZIYA

Farmatsiya fakulteti Biologik kimyo kafedrasи mudiri, t.f.n., professor Kaxxor Xalikovning voldasisi Xavo xoji onaning vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga chuqr ta'ziya izhor etamiz.

Tibbiy pedagogika, oly hamshiralik ishi va xalq tabobati fakulteti Umumiy xirurgiya kafedrasи assistenti, PhD., dotsent v.b. Zayniddin Saydullayevning otasi Yaxshiboy otaning vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga chuqr ta'ziya izhor etamiz.

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi**

Tahririyat raisi:  
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:  
E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:  
G'.U.Lufullayev,  
S.A.Karabayev,

A.A.Axmedov, J.F.Kadirov,  
B.E.To'xtarov, F.A.Daminov,

S.E.Mamaradjabov,  
N.M. Shavazi, O.A.Xamidov

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

O. Muratov

Operator va sahifalovchi:

A. Xolboyev

Fotomuxbir:

O.Axmedov



Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxitga olingan.

INDEKS: 5539

**MANZIL:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.  
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75  
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

Gazeta SamDTU bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2023 yil, 27 oktabr. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 111